

# Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Shomuil,  
Hudoning  
hizmatkori



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:  
Janie Forest


...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:  
Lyn Doerksen

...tomonidan ishlab chiqarilgan:  
Bible for Children [www.M1914.org](http://www.M1914.org)

©2013 Bible for Children, Inc.  
Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz  
yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.  
Lekin u sotilmaydi.




Hanna juda yahshi ayol bo'lib, Elqana  
ismli odamning hotini edi. Ularning  
ikkovi ham  
hudojo'y bo'lib,  
odamlarga  
yahshilik qilib  
yurishardi.



Lekin Hannaning hayotida bir narsa yetishmas edi. Hanna befarzand

edi. U Xudodan farzand so'rab duo qilar va farzandli bo'lishni juda istardi.



Hanna har  
yili Sarvari  
Olamga sajda  
qilib, qurbonlik  
keltirar edi.





Bir kuni u:  
"Agar menga  
o'g'il ato  
etsang, o'sha  
o'g'limni Sening  
xizmatingga  
berardim," - deb  
Xudovandga  
va'da berdi.



Ruhoniy Elah  
Hannaning  
ibodatiga  
qarab  
turar edi.



Hanna ichida  
gapirar, ovozi  
eshitilmas,  
faqat lablari  
qimirlardi.





Shuning uchun  
Ellah Hannani  
mast bo'lsa  
kerak deb  
o'yladi va  
uni koyidi.





Ammo  
Hannah  
Ellahga: "Yo'q  
men sharob  
ichmaganman,  
faqat yuragimdagini  
Eganga to'kib  
solyapman," - dedi.





Shunda Ellah:  
"Eson-omon  
bor. Isroil  
halqining Xudosi  
tilagingni bajo  
keltirsin," - dedi.  
Shunda Hanna umid  
bilan uyiga qaytdi.



So'ng tez orada Hannaning yuragi quvonchga to'ldi. Xudovand Hannaga marhamat qildi. Hanna homilador bo'lib, o'g'il tug'di va uni Egamizdan tilab oldim deb, ismini



Shomuil qo'ydi. Hanna Xudoga bergan va'dasini unutmadimikan?





Hanna  
qurbongohga  
ancha vaqt  
bormadi.  
Nahotki u  
Xudoga bergan  
vadasini buzdi?  
Albatta yo'q!





U Shomuil  
katta bo'lishini  
kutardi.  
Shomuil katta  
bo'lgandan  
keyin Hanna uni  
Xudoga xizmat  
qilish uchun  
ruhoniyl Elahning  
yoniga olib bordi.





Xudovand  
Hannaga  
ko'p  
marhamat  
ko'rsatdi.





Shomuildan  
keyin,  
Xudovand  
unga yana  
3 o'g'il va  
3 qiz berdi.







Hanna  
har yilgi  
qurbonlikni  
ato etish  
uchun  
Xudoning  
huzuriga kelib,  
o'zi tikkan  
kiyimni o'g'liga  
olib kelardi.



Shomuil ruhoniy Elah  
huzurida qolib, Hudoga  
hizmat qilardi. Ellahning  
o'g'illari Ho'fnah  
va Finhaz ham  
otalari bilan  
birga hizmat  
qilishar edi.



Lekin ular  
yaramas yigitlar bo'lib,  
Egamizni hurmat qilmas  
va ruhoniyluk  
burchlarini  
mensimas  
edilar.






Ular hatto otasi ham  
quloq solmas edi. Ruhoniy  
Ellah o'g'illarini ruhoniylik  
vazifasidan  
bo'shatishi  
kerak edi,  
ammo u  
bunday  
qilmadi.





Bir kuni  
kechasi Xudo  
Shomuilni  
chaqirib qoldi.  
Shomuil:  
“Labbay  
hazratim ,” -  
deb, Ellahning  
oldiga yugurib  
keldi.





Bu hodisa 3  
marta sodir  
bo'ldi, shunda  
Ellah bildiki,  
o'spirinni  
Xudovand  
chaqirayotgan  
ekan.





Shunda Ellah  
Shomuilga  
dedi: "Agar  
o'sha ovoz  
seni yana  
chaqirsa,  
gapiraver  
Egam," ...





... xizmatching  
eshitadi,  
degin".  
Xudovand  
o'sha yerda  
Shomuilga  
yana zohir  
bo'lib, unga  
muhim  
habarni  
berdi.





Ertalab Ruhoniy Ellah Shomuilni  
chaqirib: "Egamiz senga nimalar  
dedi?" - deb so'radi.




Shomuil Ellahdan hech narsani yashirmay aytib berdi. Bu juda qo'rqinchli habar edi. Chunki


Xudovand uning o'q'illari Ho'fnah va Fihnazni o'ldirishga qaror qilgandi.




Xudoning aytgan so'zlari bajo bo'ldi. Shundan so'ng Falastinliklar qattiq hujum qilib, Isroil lashkarlarini mag'lub etdi. Dushmanlar Xudoning Ahd Sandig'I ham qo'lga kiritishdi.




Ellahning ikkala o'g'li - Ho'fnah  
bilan Finhaz esa halok bo'ldi.  
Ellah bu xabarni eshitgach,  
kursidan orqasi bilan  
yiqildi, bo'yni sinib,  
o'sha zahoti  
jon berdi.




Falastinliklar Xudoning Ahd Sandig'ini qo'lga kiritgandan keyin, bu ularga ko'p balo-qazolar keltirdi.




Falastinliklar uni o'zlari sajda qiladigan, Do'g'on nomli butlari turadigan butxonaga keltirib qo'yishdi.




Erta sahar turib qarashsaki, Do'g'on yuzi bilan yerga ag'darilib yotgan ekan. Shunda uni ko'tarib, joyiga turg'izib qo'yishdi.



Ertasiga yana turib qarashsaki,  
Do'g'on yerga ag'darilib yotgan ekan  
va bu safar uning boshi, ikki qo'li  
sinib, ostonada yotgan ekan.









Falastinliklar kasallik bilan o'linga mubtalo bo'lishdi. Ular arava bilan sigirni qo'shib hozirlab, ichiga Ahd Sandig'ini solib, qo'yib yuborishdi.






“Agar  
sigirlar  
bizning  
yurtimizda  
n o'tib,  
Isroil  
yeriga  
ketsa, ...






... demak  
boshimizga  
bunday katta  
kulfatni solgan  
Isroil xalqining  
Xudosi  
ekanligini  
shundan bilib  
olamiz," -  
deyishdi.






Sigirlar Isroil  
yeriga o'tib,  
to'htab  
qolishdi.





Shomuil jamiiki  
Isroil xalqiga:  
"Agar chin  
dildan Egamiz  
Xudoga  
qaytsangiz,  
Egamiz sizlarni  
Falastinliklar  
qo'lidan  
qutqaradi," -  
dedi.





Isroil xalqi  
unga ishonib,  
yana Xudoga  
hizmat qila  
boshlashdi va  
Xudovand  
ularni  
Falastinliklar  
qo'lidan  
qutqardi.



Shomuil, Hudoning hizmatkori

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

1 Samuel 1-7

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi





Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.



Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga  
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:  
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman,  
Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun  
o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men  
sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot  
bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel,  
men Senga itoat qilishim uchun va Sening  
frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har  
kuni suhbatlashing! Yuhanno 3:16

